

PAPER

TOSHKENT VILOYATIGA MOS BO'LGAN SHILVI (LONICERA CAERULEA-JIMOLOST) NAVLARI TASNIFI

Abdullayeva Hilola Ravshanovna^{1,*} and Muydinov Akmaljon Zokirjon o'g'li²

¹Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti kat.i.x., q.x.f.d., Toshkent and ²Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti, Toshkent

*hilola.abdullayeva@mail.ru

Abstract

Ushbu maqolada O'zbekiston sharoitiga moslashtirilayotgan shilvi (*Lonicera caerulea-jimolost*) o'simligi haqida umumiy mal'umot berilgan, jumladan o'sish sharoiti, navlar tasnifi, meva tarkibi haqida so'z borgan.

Key words: Shilvi, "Blue moon", "Blue forest", "Blue mist", gul, meva, rezavor, buta, makro va mikro elementlar, vitaminlar, hosildorlik.

Kirish

Respublikada bog'dorchilik va uzumchilik tez shiddatlar bilan rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Maxkamasi tomonidan mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash, iste'molchilar talabini respublikamizda yetishtirilayotgan meva, rezavor mevalar va uzum mahsulotlari hisobiga to'la qondirish hamda eksport qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelmoqda.

Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrda "Meva – sabzavotchilik va uzumchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi ishlab chikarishida dexqon xo'jaliklarining ulushini oshirish chora – tadbirlari to'g'risida" PQ–20–sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 dekabrda "Meva – sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–52–son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 24 avgustda "Qishloq xo'jaligi ekinlarining yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan noyob belgili va xususiyatlariga ega mahalliy navlarni qayta tiklash va ularning orginal urug'chiligini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" 504–son qarorlari mevachilik va uzumchilik sohalarida tubdan isloh qilish imkonini bermoqda.

Adabiyotlar tahlili

Shilvi navlarini o'rganish bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar bir qator mahalliy va xorijiy E. I. Kulikova (2021 y), Степана Крашенинникова «Описание земли Камчатки» (1756 y), Д.М. Брыксин, З.И. Лучник (1966) olimlar tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Shilvi- (*Lonicera caerulea* L) qimmatli dorivor o'simliklardan biri bo'lib, uning mevalari foydali xususiyatlarga boy, shilvi mevalari cho'zinchoq shaklda, mevasining rangi ko'k yoki to'q ko'k, suvli, shirin va nordon ta'mga ega. Mevalari past kaloriyali, quritilgan va muzlatilgan holda deyarli shifobaxsh xususiyatini yo'qotmaydi.

So'ngi yillarda aholi soni keskin ortishi bilan oziq-ovqatga bo'lgan talab ham shiddat bilan ortib bormoqda, shu jumladan rezavor mevalarga bo'lgan talab yildan yilga ortmoqda. Aholini rezavor mevalarga bo'lgan talabini qondirish maqsadida akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida, ushbu institut olimlari ko'magida yurtimizda dastlab yetishtirilmagan yangi rezavor meva shilvi o'simligini O'zbekiston sharoitiga introduksiya qilib, xalqimiz dasturxonini yana bir rezavor meva turiga ko'paytirishni niyat qilib olingan. Kelajakda yurtimiz sharoitlariga mos bo'lgan shilvi o'simligini morfo-biologik xususiyatlarini o'rganib,

seleksiya uchun dastlabki manbalarni aniqlab, yangi navlarini yaratishni oldimizga maqsad qilib oldik.

Shilvi o'simligini mevasi tarkibi; 11.6-14.7% quruq massa, qand miqdori 5.2% va pektin miqdori esa 1.1-1.45% gacha bo'ladi. Meva tarkibidagi aminakislata va qand miqdori meva pishishiga qarab farq qiladi. Shilvi o'simligi mevasi tarkibida inson salomatligi uchun zarur bolgan vitaminlar miqdori ko'pligi bilan boshqa mevalardan ajralib turadi. Shu jumladan 100 gram meva tarkibida 22,7-27,4 mg vitamin C, 1035-1956 mg vitamin P, 0,05-0,32 mg vitamin A, vitamin B1 0,8-3,8 mg, B2 – 2,5-3,8mg, B9 esa 7,2-10 mg ni tashkil etadi.

Shilvi o'simlik mevasi makro va mikro elementlarga ham boy hisoblanadi. Shilvi rezavor mevalar orasida magniy va natriy miqdori bo'yicha birinchi o'rinda turadi, ya'ni Mg 21,7 mg Na esa 35,2 mg bo'ladi, 100 gr meva tarkibida kaliy-70,3 mg, fosfor-35,7 mg, kalsiy-19,3 mg, temir esa 0,82 mg gacha bo'ladi. Mikroelementlardan marganes – 3,12 mg/kg, mis – 0,064 mg/kg, kremniy – 0,84 mg/kg, yod – 0,929 mg/kg gacha bo'ladi. Bundan tashqari stronsiy va bariyga ham boy hisoblanadi. Yod miqdori bo'yicha shilvi qulupnaydan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Shilvi mevasi yangi uzilgan holda, kompot, murabbo, sharbat va jem (meva sharbatining quyultirilgani) holida iste'mol qilinadi.

Shilvi navlari pH-5,5 dan 7,5 bo'lgan tuproqlarda yaxshi o'sadi. Soyasevar o'simlik. Juda jozibali, ixcham va keng tarqalgan buta, yumshoq, to'q yashil, baxmal barglari bilan ajralib turadi. O'z-o'zidan qiyin changlanadi, shuning uchun bir nav bilan birga, gullash vaqti bir xil bolgan boshqa nav ham ekish tavsiya etiladi. Butalarning balandligi 1-1,5 m, butalarni orasi 1-1,5m qilib ekish tavsiya etiladi. Bu nav ekilgandan so'ng 1-2 yil ichida meva berishni boshlaydi, 50 yilgacha yashaydi. Butalari -40°C gacha sovuqqa chidamli.

Shilvi navlarining gullari sariq, gullash vaqti mart oyida, mevasi ko'k va cho'zinchaq bo'ladi, mevasi iyunda pishib yetiladi, mevasi katta va shirin, suvli, yangiligida, quritilgan yoki konservalangan holatida iste'mol qilinadi. Hisildorligi har bir tupdan 5-10 kg gacha hosil beradi.

Shilvini qalamcha qilib, butalarini bo'lib hamda urug'idan ko'paytiriladi. Hozirgi kunda shilvini AQSH dan olib kelingan 4 ta navi akademik M.Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutining tajriba maydonida ekilib, fenalogik kuzatuvlar olib borilmoqda.

Navlar tasnifi.

“Blue moon” – “Moviy oy” – Honeysuckle oilasiga mansub, 5,5-7,5 gacha bo'lgan pH da yaxshi o'sadi. Ular soyada ham, quyoshda ham yaxshi o'sadi va yaxshi quritilgan, unumdor tuproqni afzal ko'radi. O'zaro changlanishi uchun ikki xil navni ekish tavsiya etiladi. Butalar balandligi va kengligi 4 m gacha o'sadi. Ular ekilgandan 1-2 yil o'tgach meva bera boshlaydi. Mevalari iyun oyida pishib yetiladi. Ular har bir tupdan 5-10 kilogramm hosil beradi.



“Blue forest” – Bu navlar shimoli-g'arbiy mintaqada erta gullaydigan navlarga qaraganda 2 oy keyin gullaydi. Kech gullash changlatish uchun yaxshi samara beradi. Ko'proq asarilar va boshqa hasharotlar changlanishiga yordam beradi va meva tugishi ancha yaxshi bo'ladi.



Lotincha nomi: *Lonicera caerulea* var. *edulis*, Honeyberry salqin hududlarda 1/2 kun to'liq quyoshni, issiq hududlarda qisman soyani va yaxshi quritilgan tuproqni yaxshi ko'radi. Changlanishga qo'yiladigan talablar: o'zaro changlanish bir xil gullash vaqtiga ega bo'lgan ikkita navni talab qiladi. -40°C gacha sovuqqa chidamli, ekilgandan so'ng 1-2 yilda hosil beradi. Butasining balandligi 2-3 m, ta'mi, shirin, mevasining rangi to'q ko'k, gullash vaqti mart oyida gullaydi, iyun oyida pishib yetiladi, 1 tupining hosildorligi: 5-10 kg.



“Blue mist” – lotincha nomi: *Lonicera caerulea* Honeyberry 1/2 kun to'liq quyoshni, issiq hududlarda qisman soyani va yaxshi

quritilgan tuproqni yaxshi ko'radi. Changlanishga qo'yiladigan talablar: o'zaro changlanish, bir xil gullash vaqtiga ega bo'lgan ikkita navni talab qiladi. -40°C gacha sovuqqa chidamli nav hisoblanadi. Ekilgandan so'ng 1-2 yilda hosilga kiradi. Butasining balandligi 2-3 m balandlikda bo'ladi. Ta'mi, shirin, mevasining rangi ko'k, mart oyida gullaydi, iyun oyida pishib yetiladi, 1 tupidan 5-10 kg gacha hosil beradi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytish mumkinki, shilvi o'simligi navlari ertapishar, serhosil, sovuqqa chidamliligi, ajoyib shirin ta'mi, kimyoviy tarkibi bilan boshqa rezavor mevalardan ajralib turadi. Mevasining tarkibidagi vitaminlar, qand, organik kislota, xushbo'y moddalarga boy bo'lgani uchun ham qimmatli hisoblanadi. Xalq xojaligida tibbiyotda va tabobatda qo'llanilishi va dorivorligi tasdiqlangan.

Adabiyotlar

1. Abdullayev R.M., Yagudina S.I. – Tomorqada yetishtiriladigan rezavor mevalar. Toshkent- "Mehnat" 1989 y. 37-80 b.
2. ПРОГРАММА И МЕТОДИКА, СОРТОИЗУЧЕНИЯ ПЛОДОВЫХ, ЯГОДНЫХ И ОРЕХОПЛОДНЫХ КУЛЬТУР (1999)
3. Ягудина С.И. Смородина. Тошкент. "Меҳнат". 1976 й.
4. R.M.Abdullayev, H.R.Abdullayeva. Rezavor mevali o'simliklar. Toshkent-2020.
5. H.R Abdullaeva. Rezavor mevalar – tanga darmon. / J.: O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2016. – №4.
6. <https://www.agro.uz>
7. <https://lex.uz>
8. <https://xabar.uz>
9. <https://www.isons.com/shop/berry-plants/honeyberry/blue-moon-honeyberry/?srsltid=AfmBOoqHBNy-mUaRkAqVKUksKDGfKQVjsyObuik2YuJKj1SP8XX7Kihttps://onegreenworld.com/product/blue-mist-2/>